

**BIR TOMONLAMA BOSH TORTISH ORQALI
SHARTNOMANI BEKOR QILISH INSTITUTI: TOPSHIRIQ
VA VOSITACHILIK SHARTNOMALARIDA**

Axrorova Nasiba Shohnazar qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 3-kurs talabasi

nasiba8802@gmail.com

Annotasiya. Maqola fuqarolik huquqi qonunchiligining so‘nggi o‘zgarishlari, olimlarning ushbu mavzu bo‘yicha bergan tushuntirishlari nuqtai nazaridan hamda xorijiy davlatlarning qonunchiligidagi shartnomani bir tomonlama bosh tortish orqali bekor qilishdagi yondashuvlarni tahlil qilish masalasiga bag‘ishlanadi. Maqolada asosiy e’tibor shartnomani bir tomonlama bosh tortish orqali bekor qilish huquqini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlarini topshiriq va vositachilik shartnomalari kesimida tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Shartnomadan bir tomonlama bosh tortish, majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish, topshiriq shartnomasini bajaruvchi taraf vakil, komitet, vostachi.

**THE INSTITUTION OF TERMINATION OF CONTRACT BY
UNILATERAL REFUSAL: IN AGENCY AGREEMENTS**

Akhrorova Nasiba Shahnazар qizi

3rd year student of Private Law Faculty of
Tashkent State University of Law

nasiba8802@gmail.com

Abstract. The article is devoted to the analysis of the approaches to the termination of the contract by unilateral refusal in the perspective of the latest changes in the legislation of civil law, the explanations given by scientists on this topic and the legislation of foreign countries. The main focus of the article is on the analysis of the specific features of the right to cancel the contract by unilateral refusal in terms of agency agreements.

Key words: unilateral refusal of the contract, unilateral refusal to fulfill the obligation, representative of the party performing the agency contract, committee, supervisor.

Shartnoma bu fuqarolik huquqida ikki yoki bir necha shaxslarning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi hisoblanadi. Shuningdek, shartnoma Fuqarolik Kodeksida, boshqa qonunlarda yoki shartnomaning o‘zida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, taraflarning kelishuviga muvofiq o‘zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. Fuqarolik Kodeksining 237-moddasiga muvofiq, majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonunchilikda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasnoligi belgilan qo‘yilgan. Ya’ni, taraflar shartnomada majburiyatlarni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishi va shartnoma shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishiga yo‘l qo‘yilmaydi, lekin, umumiyligida tariqasida, shuni ta’kidlash joizki, qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno hisoblanadi. Albatta, bunday umumiyligida shartnoma intizomini mustahkamlashga ko‘maklashadi. Xususan, pacta sunt servanda tamoyiliga ko‘ra, “Har bir amaldagi shartnoma uning ishtirokchilari uchun majburiydir va ular tomonidan vijdonan bajarilishi kerak”- deyilgan. Ya’ni, shartnoma tuzilgandan keyin u qat’iy bajarilishi kerak. Aks holda, shartnomani buzgani va delikt uchun javobgarlikka tortiladi. Ammo, bu umumiyligida bo‘lib, istisnolar ham mavjud.

Shartnomada majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo‘l qo‘yimasligi to“g‘risidagi talab, majburiyatning lozim darajada bajarilishi to“g‘risidagi prinsip bilan o‘zaro bog‘liqdir. Chunki, bu yerda taraflarning xohish irodasi bilan tuzilgan shartnomaga asoslangan majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga va unga o‘zgartish kiritish mumkin emasligi belgilangan. Shu bilan birga, yuqorida ta’kidlanganidek, agar qonun hujjatida nazarda tutilgan yoki shartnoma taraflari tomonidan kelishilgan bo‘lsa, majburiyatni bajarishdan bosh tortishga yoki unga bir tomonlama o‘zgartirish

kiritishga yo‘l qo‘yiladi. Masalan, sotib oluvchi tomonidan tovarlar haqini to‘lash muddatini bir necha bor buzilishi, tovarni bir necha bor olib ketmaslik majburiyatini bajarish kechiktirilgan hisoblanadi va mahsulot yetkazib beruvchiga majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish uchun asos bo‘ladi.

Shuningdek, kelishuvga erishilmaganda yoki majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga asoslar mavjud bo‘lmaganda shartnomalar suuning qaroriga ko‘ra bekor qilinishi mumkin. Qonun hujjatlari va taraflarning kelishuviga muvofiq yo‘l qo‘yilgan hollarda shartnomani to‘laligicha bajarishdan bir tomonlama bosh tortish orqali ham shartnomalar bekor qilingan hisoblanadi¹.

1963-yildagi Grajdanskiy Kodeksning 181-moddasida shartnomani bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yoki shartnomalar shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmagan. Lekin, bu kabi shartnomalar majburiyatlarini bajarishda taraflarining erkinligini cheklovchi qoida hozirgi amaldagi qonun hujjatlarida rad etilgan.

Amaldagi Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining 450-moddasiga binoan, shartnomalar tomonlardan birining iltimosiga binoan, boshqa tomon shartnomani jiddiy ravishda buzgan taqdirda, shuningdek shartnomada yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda sud qarori bilan bekor qilinishi mumkin. Fuqarolik-huquqiy shartnomani bekor qilish usullari quyidagilar:

Birinchidan, sud qarori bilan har qanday fuqarolik-huquqiy shartnomalar boshqa taraf tomonidan jiddiy qoidabuzarlik tufayli bekor qilinishi mumkin. Shu bilan birga, shartnomalar shartlari buzilishining jiddiyligini isbotlashi hamda sudga tugatish to‘g’risida ariza bilan murojaat qilishi kerak. Shartnomani jiddiy

¹ Majburiyat huquqi (umumiylar). /Huquqshunoslik ixtisosligi bo‘yicha oliy o‘quv yurtlari “Xususiy huquq” yo‘nalishi magistratura talabalari uchun. – T.: TDYU nashryoti, 2009-yil. 198-bet

buzish tushunchasining o‘zi shunday zararning mavjudligini nazarda tutadiki, taraf shartnoma tuzishda umid qilish huquqiga ega bo‘lgan narsadan asosan mahrum bo‘ladi (Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining 450-moddasi 2-bandi 2-bandi).

Ikkinchidan, sud qarori bilan tomonlardan birining tashabbusi bilan shartnoma qonunda nazarda tutilgan hollarda bekor qilinishi mumkin. Masalan, bunday qonunchilik qoidalari Rossiya Kodeksida aniq ko‘rsatilgan. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining 619, 620-moddalari tomonlarning tashabbusi bilan ijara shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish; Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining 687-moddasi esa, uy egasining iltimosiga binoan ijara shartnomasini bekor qilish².

Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik Kodeksida shartnomalarning ayrim turlari bo‘yicha majburiyatlarni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish imkoniyatini belgilovchi bir qator normalar belgilangan. Bunga ko‘ra, tomon istalgan vaqtida shartnomani bajarishdan bosh tortish huquqiga ega. Shunday qilib, shartnoma muddatidan qat‘i nazar, uni bajarishning istalgan bosqichida (u kuchga kirgunga qadar va bajarilmaguncha), agar qonunda yoki shartnomada uni bekor qilish imkoniyati nazarda tutilgan bo‘lsa, rad etishga haqli bo‘lgan tomon o‘z huquqidan foydalanishi mumkinligi belgilangan. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining 977 -moddasiga binoan, direktor buyurtmani bekor qilishga, advokat esa istalgan vaqtida rad etishga haqli hisoblanadi. Ushbu huquqdan voz kechish to‘g’risidagi bitim haqiqiy emas deb topiladi³. Ushbu qoida asosida tomonlardan biri, uni bir tomonlama bajarishdan bosh tortishi huquqi cheklanmasligini ko‘rsatadi.

² <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-sposobah-rastorzheniya-dogovora/viewer>

³ http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_9027/

Shuningdek, Fransiya Fuqarolik Kodeksining 1212-moddasiga ko‘ra, shartnoma belgilangan muddatga tuzilganda, har bir tomon uni muddatigacha bajarishi shartligi belgilab qo‘yilgan⁴. Ya’ni, boshqacha qilib aytganda, taraflar shartnomani bir tomonlama tugatish imkoniyatiga ega emaslar. Shuning uchun ham fransuzlarning ko‘p shartnomalari muddatli bo‘ladi. Buning sababi, shartnomani muddatidan oldin bekor qilgan taraf aybdor bo‘lishidadir. Ammo, barcha qonunchilikda istisnolar bo‘lgani kabi Fransiya qonunchiligidagi ham istisnolar mavjud bo‘lib, bunga ko‘ra, muddatli tuzilgan shartnomani taraflar faqat ikkita holatga ko‘ra bekor qila olishar ekan. Birinchisi bu bir tomonlama tugatish imkoniyati qonunda nazarda tutilgan holatlarda bo‘lsa, ikkinchisi, taraflar shartnomada o‘zaro kelishgan bo‘lsa, bekor bo‘lishi hisoblanar ekan.

Fransiya Fuqarolik Kodeksining 1211-moddasida agar shartnoma noma'lum muddatga tuzilgan bo‘lsa, tomonlarning har biri shartnomada nazarda tutilgan ogohlantirish muddatini yoki u mavjud bo‘lmasganda asosli ogohlantirishni hisobga olgan holda istalgan vaqtida uni tugatishi mumkinligi ko‘rsatib qo‘yilgan⁵. Shartnoma noma'lum muddatga tuzilganda, taraflar uni bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

o‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 237-moddasiga ko‘ra, qonunda nazarda tutilgan ayrim hollardan tashqari majburiyatlarni bajarishda bir tomonlama bosh tortish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmasli belgilangan. Xususan, bu qoida qonunda nazarda tutilgan ayrim hollarda ba’zi majburiyatlar uchun qo‘llanilmaydi. Bunga misol qilib, topshiriq shartnomasini keltirsak bo‘ladi, ya’ni topshiriq shartnomasi bo‘yicha topshiriq beruvchi bergen topshirig‘ini xohlagan vaqt

⁴ https://www.trans-lex.org/601101/_/french-civil-code-2016/

⁵ https://www.trans-lex.org/601101/_/french-civil-code-2016/

bekor qila oladi, topshiriq olgan shaxs ham har vaqt topshiriqni bajarishdan bosh torta oladi.

Shartnomani bekor qilish tartibi shartli ravishda:

- a) kelishuvga ko‘ra;
- b) bir tomon talabi buyicha sud tartibida;
- c) bir tomon voz kechishi natijasida
- d) boshqa asoslarga ko‘ra (majburiyat bekor bulishining umumiy asoslari, shartnomaning muddati o‘tishi va h.k. kabilar) ga ajratiladi.

o‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi Fuqarolik kodeksining 817-moddasiga muvofiq, topshiriq shartnomasi bo‘yicha bir taraf (vakil) ikkinchi taraf (topshiriq beruvchi) ning nomidan va uning hisobidan muayyan yuridik harakatlarni sodir etish majburiyatini oladi. Vakil tuzgan bitim bo‘yicha huquq va majburiyatlar bevosita topshiriq beruvchida vujudga keladi. Mazkur shartnoma Rim yuristlarining fikriga ko‘ra, topshiriq shartnomasi bu «ex officio utque amisitia» ya’ni jamoa manfaati va majburiyatidan kelib chiqib, shaxsan-vakillik xarakteriga ega va uning zaruriy belgisi bu taraflarning o‘zaro ishonchi hisoblanadi. Ushbu holatlar topshiriq shartnomasining qo‘llanilishi, bajarilishi va tugatilishiga doir o‘ziga xos xususiyatlarni belgilab beradi.

Shartnoma bo‘yicha huquq va majburiyatlar vakilning yuridik hatti harakatlaridan kelib chiqib uning o‘zida emas, balki topshiriq beruvchida o‘zgaradi va bekor bo‘ladi. Topshiriq shartnomasining ushbu muhim belgisi boshqa har qanday vakilik uchun xarakterli bo‘lib hisoblanadi. Shu jihatdan topshiriq shartnomasi bir shaxsning boshqa shaxs nomidan vakillik qilishiga o‘xshab ketadi.

Topshiriq shartnomasida qatnashadigan shaxslar doirasi chegaralanmaydi. Topshiriq shartnomasining taraflari bu vakil va topshiriq beruvchi bo‘lib ular muomalaga layoqatli yuridik hamda jismoniy shaxslar bo‘lishi mumkin.

Topshiriq shartnomasi konsessual, ikki tomonlama, haq evaziga va tekin tuzilishi mumkin. Haq evaziga tuziladigan shartnoma ikki tomonlama bo‘ladi degan tushuncha mavjud. Fuqarolik Kodeksining 818-moddasiga ko‘ra, agar qonun hujjatlarida yoki topshiriq shartnomasida nazarda tutilgan bo‘lsa, ishonchli vakilga haq to‘lanishi begilab qo‘yilgan.

Asosiy masalaga keladigan bo‘lsak, bir tomonlama bosh tortish orqali topshiriq shartnomasida taraflarning shartnomani bekor qilishi quyidagicha bo‘ladi:

1. topshiriq beruvchi topshiriqni bekor qilishi;
2. vakil topshiriqdan bosh tortishi;
3. topshiriq beruvchining yoki vakilning vafot etishi, ulardan birining muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki bedarak yo‘qolgan deb topilishi natijasida to‘xtatiladi.

Topshiriq beruvchi istagan vaqtida topshiriqni bekor qilishga, vakil esa topshiriqdan bosh tortishga haqli. Bu huquqdan voz kechish haqidagi kelishuv o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydi.

Agar vakil topshiriq shartnomasining bekor qilingani haqida bilmagan va bilishi lozim bo‘lmasa, uning topshiriq beruvchining ko‘rsatmasiga muvofiq qonuniy ravishda qilgan harakatlari topshiriq byeruvchi (uning qonuniy vorisi) zimmasiga uchinchi shaxslar va vakilga nisbatan majburiyat yuklaydi.

Tadbirkor sifatida ish olib borayotgan vakil bilan topshiriq shartnomasidan bosh tortayotgan taraf shartnomani byekor qilish to‘g’risida ikkinchi tarafni, agar shartnomada uzoqroq muddat nazarda tutilgan bo‘lmasa, kamida o‘ttiz kun oldin xabardor qilishi shart. Tijorat vakili bo‘lgan yuridik shaxs qayta tashkil etilganida topshiriq beruvchi o‘z topshirig’ini ana shunday oldindan xabar bermay turib bekor qilishga haqli⁶.

Yuqoridagi moddadon ko‘rinib turibdiki, topshiriq shartnomasida tomonlardan birining istagiga ko‘ra bir tomonlama shartnomani bekor qilishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan. Bu topshiriq shartnomasining o‘ziga xos tomonlaridan biri hisoblanadi.

Topshiriq shartnomasining bekor bo‘lishining uchinchi asosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, topshiriq beruvchi yoki vakilning o‘limi bilan bog‘liq vaziyatlar, ulardan birini muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki bedarak yo‘qolgan deb topilganda, topshiriq shartnomasini bekor qilish uchun alohida holat hisoblanib qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarning bekor bo‘lishi bilan bir qatorda bekor topshiriq shartnomasi ham bo‘lishi mumkin. Ya’ni, vakilning o‘limi bilan topshiriq shartnomasini bajarib bo‘lmaydi va ushbu shartnomada huquqiy vorislikka yo‘l qo‘yilmaydi. Lekin, vakil vafot etsa yoki muomalaga layoqati cheklansa, bedarak yo‘qolgan deb topilgan bo‘lsa, vakilning vorislari topshiriq shartnomasini bekor bo‘lganligini, topshiriq beruvchiga xabar qilishi va uning mulkini himoya qilish choralarini ko‘rishi majburiyati mavjud.

Agar topshiriq beruvchi bedarak yo‘qolgan, vafot etgan yoki muomalaga layoqatsiz bo‘lib qolgan yoxud muomalaga layoqati cheklangan deb topilgan bo‘lsa, topshiriq beruvchining manfaatlarini ko‘zlab himoya qilish vazifasi

⁶ o‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 823-modda. <https://lex.uz/docs/-180552>

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda biror-bir shaxsga, masalan, vasiyga yoki homiyga yuklatilgungacha vakil ishni olib borishga, topshiriqni bajarishga majbur bo‘ladi.

Ishonch topshiriq shartnomasining zaruriy belgisi bo‘lganligi uchun topshiriq beruvchi bilan vakil o‘rtasida o‘zaro ishonchli munosabatlar mavjud bo‘lishi lozim. Taraflar istalgan vaqtda ushbu sifatning yo‘qolishi bilan topshiriq beruvchi ham vakil ham topshiriq shartnomasini bajarishdan bosh tortishi mumkin. Shuni ham inobatga olishimiz kerak-ki, topshiriq beruvchi tomonidan agar vakil topshiriqni bajarishni xohlamasa, (hech qanday asoslarsiz) uni ushbu topshiriqni bajarishga majburlaydigan huquqiy ta’sir qo‘llash mumkn emas. Topshiriq beruvchi vakilga, vakil esa topshiriq beruvchiga to‘liq ishonishi kerak.

Topshiriq shartnomasida bir taraf bir tomonlama bekor bo‘lishidan kelib chiqadigan zararni ikkinchi taraf bir tomonlama bosh tortish orqali zarar kelib chiqqan deb uni qoplashi kerakagini talab qilishga asos bo‘lmaydi.

Shuni inobatga olishimiz kerakki, Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksi 978-moddasining 2 va 3-qismlari quyidagi qoidalarni ko‘zda tutadi: «Topshiriq beruvchining topshirig’ini bajarishdan vakilning bosh tortishi topshiriq shartnomasini bekor bo‘lishi bilan bog’liq yetkazilgan zararni qoplamaslikka asos bo‘lmaydi, lekin topshiriq beruvchi o‘z manfaatlarini boshqacha himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lmagan holatlar bundan tashqari hamda vakilning tijorat vakili sifatida shartnomani bajarishdan bosh tortishi istisno qilinishi mumkin». Ya’ni bu yerda vakil topshiriq shartnomasini bajarishdan bosh tortsa va topshiriq beruvchi ushbu vaqtda chet elda bo‘lsa yoki darxol boshqa vakil topa omasa, o‘z manfaatlarini himoya qilishga imkoniyati bo‘lmasa va buning natijasida vakilning shartnomani bekor qilishidan topshiriq

beruvchiga zarar yetsa ya’ni vakil mulkni o‘z vaqtida topshirmasa yoki boshqa hollarda zarar kelib chiqsa Rossiya Federatsiyasi qonunlariga ko‘ra vakil ushbu zararni qoplashi shart. Albatta, ushbu normani ya’ni vakil tomonidan yetkazilgan zararni qoplashni o‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida ham mustahkamlash maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Tadbirkor sifatida ish olib borayotgan vakilning topshiriq shartnomasini bekor qilishi o‘ziga xos qoida belgilangan. Ushbu holatda tadbirkor sifatida ish olib borayotgan vakil bilan topshiriq shartnomasidan bosh tortayotgan taraf shartnomani bekor qilish to‘g’risida ikkinchi tarafni, agar shartnomada uzoqroq muddat nazarda tutilgan bo‘lmasa, kamida o‘ttiz kun oldin xabardor qilishga majbur. Bu qoida topshiriq byeruvchining ham vakilning manfaatlariga to‘g’ri keladi. Tijorat vakili bo‘lgan yuridik shaxs qayta tashkil etilganida topshiriq beruvchi o‘z topshirig‘ini ana shunday oldindan xabar bermay turib bekor qilishga haqli⁷.

Vositachilik shartnomasi bu FKning 832-moddasiga ko‘ra, bir taraf (vositachi) ikkinchi tarafning (komitent) topshirig‘i bo‘yicha o‘z nomidan, biroq komitent hisobidan bir yoki bir necha bitimni haq evaziga tuzish majburiyatini oladi. Vositachilik shartnomasi yozma ravishda tuzilishi shart. Ya’ni, bir taraf (komitent), ikkinchi taraf (vositachi)ga o‘z nomidan lekin, topshiriq beruvchi (komitent)ning hisobidan faqatgina bitim tuzish topshirig‘ini oladi.

Vositachilik shartnomasida bir tomonlama bosh tortish orqali shartnomi bekor qilinishiga keladigan bo‘lsak, komitent vositachiga bergen topshirig‘ini istagan vaqtida hech qanday vajlarsiz bekor qilib, vositachilik shartnomasini bajarishdan bosh tortishga haqli. Bunda umumiy asoslarga topshiriqdan bosh tortish oqibatida kelib chiqqan vositachining zarari qoplanadi.

⁷ o‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksiga sharh: Professional sharhlar. T 2. o‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. — Toshkent: Baktria press, 2013-yil.

Vositachilik shartnomasi konsessual, ikki tomonlama shartnama bo‘lib, muayyan bir muddat belgilanadi yoki muddati ko‘rsatilmay tuziladi.

Xitoy Xalq Respublikasining “Shartnomasi to‘g‘risida”gi Qonunining 424-moddasida vositachilik shartnomasida vositachi ishonchli boshqaruvchiga shartnama tuzish imkoniyati to‘g‘risida hisobotni berishga yoki shartnama tuzish uchun vositachilik xizmatlarini ko‘rsatishga va ishonchli boshqaruvchi buning uchun haq to‘lashga haqliligi belgilab qo‘yigan. Demak, Xitoy qonunchiligiga ko‘ra vositachi ishonchli boshqaruvchi (komitent)ga hisobot berishga, shartnama bitim tuzish xizmatlarini ko‘rsatishga va bu uchun haq olishga huquqi borligi belgilab qo‘yilgan ekan⁸.

Amal qilish muddati ko‘rsatilmagan holda tuzilgan vositachilik shartnomalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bunday holatda komitent vositachiga shartnomani bekor qilish haqida o‘ttiz kundan kam bo‘lmagan muddat oldin xabar qilishi lozim. Vositachi shartnama bekor qilinishidan oldin tuzilgan bitimlar bo‘yicha to‘lovlarni, shuningdek shartnama bekor bo‘lishidan oldingi xarajatlarni talab qilishga haqli.

Topshiriq bekor bo‘lgan holatda komitent vositachilik shartnomasida ko‘rsatilgan muddatda, agar bunday muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, kechiktirmay, o‘zining vositachida bo‘lgan mulkini tasarruf etishi lozim. Agar bunday tasarruf etish amalga oshirilmasa, vositachi mulkni komitent hisobidan saqlanishga topshirishga yoki imkonli boricha komitentga foydali bo‘lgan narxlarda sotib yuborishga haqliligi qonun hujjatlarida belgilangan.

Bundan kelib chiqadi-ki, vositachilik shartnomasini komitent xohlagan vaqtinbekor qila oladi va qonunda ko‘rsatilganidek, shartnama amal qilgan

⁸ Xitoy Xalq Respublikasining “Shartnomasi to‘g‘risida”gi Qonun.

<https://www.ilo.org/dyn/natlex/docs/ELECTRONIC/52923/108022/F1916937257/CHN52923%20Eng.pdf>

davrdagi vositachining xarajatlarini va to‘lovlarini qoplab beradi. Lekin vositachi vositachilik shartnomasini istagan vaqt bekor qila olmas ekan. Faqatgina amal qilish muddati belgilanmagan hollardagina komitentni xabardor qilib bekor qila oladi. Shunda ham komitentni mulklarini saqlab turadi yoki qulay narxda sotishi mumkin. Buni sababi nimada ekanligiga to‘xtaladigan bo‘lsak, vositachilik shartnomasi faqat haq evaziga tuzilishi tufayli, vositachi uni agar shartnomaga muayyan bir muddatga tuzilgan bo‘lsa, o‘zi xohlagan vaqtida bekor qila olamaydi.

Shu o‘rinda, topshiriq va vositachilik shartnomalarining bir qancha faqrli jihatlariga mavjud bo‘lib, ularga to‘xtalsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Birinchi farqi bu vositachilik shartnomasining haq evaziga tuzilishi hisoblanadi. Shu tufayli ham vositachi o‘zi istagan vaqt hech qanday sabablasiz uni bekor qila olmaydi. Topshiriq shartnomasi esa ham haq evaziga ham tekinga tuzilishi mumkin hamda ishonchga asoslangan shartnomadir. Shuningdek, topshiriq shartnomasi taraflari xohlagan vaqt shartnomani hech qanday asoslarsiz bekor qila oladi. Ikkinci farqi bu ularning predmetida bo‘lib, vositachilik shartnomasining predmeti bitimlar tuzilish bo‘lsa, topshiriq shartnomasining predmeti esa, muayyam bir yuridik harakatlarni bajarish hisoblanadi. Uchinchi asosiy farqi esa bu vositachilik shartnomasida vositachi bitim tarafi hisoblanishidir. Ya’ni, vositachi uchinchi shaxs bilan bitim tuzayotganda vositachida komitentni huquq va majburiyatları vujudga keladi. Uchinchi shaxslarga vositachi komitent topshirig‘i boyicha harakat qilayotganini bildirishi shart emas. Topshiriq shartnomasida esa, vakil topshiriq beruvchining manfaatlari yuzasidan uning ko‘rsatmalari bo‘yicha harakat qilayotgani yaqqol namoyon bo‘lib turadi.

Xulosa

Shartnomalarini bir tomonlama bosh tortish orqali bekor qilishga yo‘l qo‘yilmasligini FKning 237-moddasida belgilab qo‘yilgan bo‘lishiqa qaramay ayrim bir istisnolar mavjud ekanligini tahlil jarayonida o‘rganib chiqdik. Yuqorida ta’kidlanganidek, qonunda yoki shartnomada boshqacha hol mavjud bo‘lsa, shartnomani bir tomonlama bosh tortish orqali bekor qilishga yo‘l qo‘yiladi. Bunga misol qilib, topshiriq va vositachilik shartnomalarini ko‘rib chiqdik. Xorijiy adabiyotlardan foydalangan holda mavzu doirasida chet el va milliy qonunchiligidagi holatni qiyosiy tahlil qilik. Xususan, topshiqir shartnomasiga asosan, topshiriq beruvchi istagan vaqtida topshiriqni bekor qilishga, vakil esa topshiriqdan bosh tortishga haqli. Shunday qilib, topshiriq shartnomasi istalgan vaqtida tomonlardan birining xohishiga ko‘ra bir tomonlama bekor qilinishi mumkin. Shu bilan birga, topshiriq shartnomasini bajarishdan bosh tortish huquqiy hisoblanib va majburiyatlarning buzilishi sifatida ko‘rib chiqilmaydi. Vositachilk shartnomasida esa, muddatga ahamiyat berilishi kerak. Agar vositachilik shartnomasida amal qilish muddati belgilangan bo‘lsa, faqatgina komitent bir tomonlama asossiz tarzda shartnomadan bosh tortish orqali bekor qilishi mumkin. Vositachi esa, muddati ko‘rsatilmagan holatdagina bir tomonlama shartnomani bekor qila oladi.

Foydalanimanligi adabiyotlar / References

1. o‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksiga sharh: Professional sharhlari.

o‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. — Toshkent: Baktria press, 2013-yil. – 912 b.

2. Fuqarolik huquqi. Mualliflar jamoasi. O. Oqyulov, N. Imomov, M. Baratov va boshqalar. – T.: TDYU, 2021. – 192 bet.

3. Majburiyat huquqi (umumiyligida qoidalar). /Huquqshunoslik ixtisosligi bo‘yicha oliy o‘quv yurtlari “Xususiy huquq” yo‘nalishi magistratura talabalari uchun. – T.: TDYU nashryoti, 2009-yil. – 316 bet.

4. o‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. 08.11.2022-y., 03/22/801/0998-son <https://lex.uz/docs/-111189>

5. Rossiya Fuqarolik Kodeksi
http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_9027/

6. Xitoy Xalq Respublikasining “Sharhnomasi to‘g‘risida”gi Qonun.
<https://www.ilo.org/dyn/natlex/docs/ELECTRONIC/52923/108022/F1916937257/CHN52923%20Eng.pdf>

7.
<https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-sposobah-rastorzheniya-dogovora/viewer>

8. Fransiya Fuqarolik Kodeksi.

https://www.trans-lex.org/601101/_/french-civil-code-2016/

9. Иброҳимов, А. А. Ў. (2021). КОРПОРАЦИЯНИ БОШҚАРИШДА ФИДУЦИАР МАЖБУРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ

ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 841-853.

10. Ibrohimov, A. A. M. O. G. L., & Nechaeva, E. V. (2022). XALQARO INVESTITSIYA HUQUQIDA MILLIY REJIM VA ENG QULAY SHARTLAR REJIMI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(2), 414-425.
11. Akhrorqulov, A. (2020). Issues of formation and registration of non-profit organizations. Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19), 1(02), 23-26.
12. Akhrorkulov, A. (2020). Non-Profit Organizations: Legislation Reform And Law Enforcement Practice. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 2(10), 129-134.